



## ARTICLES INVOLVING QUANTITATIVE NUMBERS IN PERSIAN LANGUAGE

**Aziza Nosirjonova**

2nd-year Classical Persian-English group student

Institute of Eastern Languages and Literatures

Tashkent State Institute of Oriental Studies

E-mail: [azizamnosirjonova@gmail.com](mailto:azizamnosirjonova@gmail.com)

Tashkent, Uzbekistan

**O. Turdiyeva**

Doctor of Philology

Associate Professor of "Iranian and Afghan Studies"

Tashkent State University of Oriental Studies School

Tashkent, Uzbekistan

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** proverb, saying, folk oral literature, aphorism, numbers, wisdom, digits.

**Received:** 28.04.25

**Accepted:** 10.05.25

**Published:** 14.05.25

**Abstract:** This article provides a classification of proverbs and sayings in the Persian language that involve numbers. It also discusses the role and meaning of numbers in the structure of proverbs.

## FORS TILIDA MIQDOR SONLAR QATNASHGAN MAQOLLAR

**Aziza Nosirjonova**

2-kurs mumtoz fors-ingliz guruhi talabasi

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

E-mail: [azizamnosirjonova@gmail.com](mailto:azizamnosirjonova@gmail.com)

Tashkent, O`zbekiston

**O. Turdiyeva**

filologiya fanlari doktori

“Eronshunoslik va afg'onshunoslik” oliy maktabi dotsenti

TDShU

Tashkent, O`zbekiston

## МАQOLA HAQIDA

**Kalit so‘zlar:** maqol, matal, xalq og‘zaki ijodi, zarbulmasal, sonlar, hikmatlar, raqam.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada fors tilidagi sonlar ishtirok etgan maqol va matallarning tasnifi berilgan. Shuningdek, unda maqollar tarkibidagi sonlarning vazifasi hamda ma’nosи ochib berilgan.

### СТАТЬИ, СОДЕРЖАЩИЕ КОЛИЧЕСТВЕННЫЕ ЧИСЛА НА ПЕРСИДСКОМ ЯЗЫКЕ

**Азиза Носирджонова**

Студентка 2-го курса группы классического персидско-английского языка

Институт восточных языков и литературы

Ташкентский государственный университет востоковедения

E-mail: [azizannosirjonova@gmail.com](mailto:azizannosirjonova@gmail.com)

Ташкент, Узбекистан

**O. Турдиева**

доктор филологических наук

доцент кафедры "Ирановедения и афганистановедения"

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** пословица, поговорка, народное устное творчество, афоризм, числа, мудрость, цифры.

**Аннотация:** В данной статье представлена классификация пословиц и поговорок на персидском языке, содержащих числа. Также рассматривается роль и значение чисел в структуре пословиц.

*Barcha narsa sondan iborat.*

*Pifagor*

Maqol - xalqning qirq yil kuzatib, bir aytgan so‘zi. Maqolda xalqning falsafiy qarashlari, erkin fikri ixcham, lo‘nda va badiiy shaklda aks etadi. Uni xalq falsafiy-badiiy tafakkurining gultoji desa bo‘ladi.

Maqollarda badiiylik kuchli. Jumla qurilishi va uslubiga ko‘ra ularni she’riy asar deyish mumkin.

Miqdor sonlar ishtirokidagi maqol va matallar barcha tillarning lug‘atida alohida o‘rin tutadi, chunki sonlar va raqamlar inson faoliyatining barcha sohalarida uchraydi. Ular umumxalq lug‘atiga asoslangan bo‘lib, asosan xalq og‘zaki ijodi mahsulidir. Shuningdek maqollar ham og‘zaki va ham adabiy tilda birdek qo‘llaniladi. Maqollar xalqlarning uzoq yillik tajribasi asosida paydo bo‘lgan qisqa-lo‘nda, siqiq, aksariyat hollarda qofiyali iboralardan iborat bo‘ladi. Ular qisqa bo‘lsa-da, turli hayotiy voqealar, insondagi yaxshi xulqlarni madh etadi, salbiylarini qoralaydi.

Fors tili qadimiy tillardan biri bo‘lib, bu til zamirida ko‘pgina maqol va matallar shakllangan. Maqol va matallarning nutqni jozibali bo‘lishida, qisqa so‘zlar bilan ko‘p ma’no bera olishida, undan tashqari yozma va og‘zaki adabiyotlarda tutgan o‘rni juda kattadir. Aksariyat maqol va matallar xalq donoligi va uzoq yillik tajribasining mahsuli hisoblanadi. Undan tashqari, ko‘plab maqollar buyuk shoir va adiblarning asarlaridan unib chiqqan. Bunday holatlarni barcha xalqlar adabiyotida kuzatish mumkin. Masalan: Shekspir ijodidagi “A coward dies a thousand times before his death” — “Qo‘rqoq o‘limidan avval ming marta o‘ladi”, yoki hammamizga ma’lum va mashhur bo‘lgan Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asaridagi hikmatlardan: “Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur, qatra-qatra yig‘ilib daryo bo‘lur”. Bu hikmatli so‘zlar bugungi kunimizda kelib, shu darajada ko‘p qo‘llaniladiki, ko‘pchilik ularning mazkur asardan olinganini bilmaydi ham. Yoki, jahon adabiyotining durdona asarlaridan biri hisoblanmish “Shohnoma”da keladiki:

توانابود ھر كەدانابود

ز دانش دل پېر برنا بود

Tarjimasi:

“Bilim insonni qudratli qiladi.

Bilim bilan qarigan ko‘ngil yosharadi.”

Hozirgi kunda ilm olishga targ‘ib qilish maqsadida juda keng ishlatilinuvchi bu baytning kelib chiqishi asli Firdavsiyga tegishli, eronliklar orasida maqol darajasiga ko‘tarilgan.

Xalq og‘zaki ijodining boshqa janrlari — ertak, topishmoq, lapar, marosim qo‘shiqlari, dostonlar, tez aytishlarda ham sonlar ishtirokini kuzatishimiz mumkin. Xoh mumtoz davr adabiyoti, xususan nazm, nasr bo‘lsin, xoh hozirgi zamon badiiy adabiyoti bo‘lsin, maqol va matallar ishlatilinmagan birorta asarni uchratish qiyin. Yuqorida aytib o‘tilganidek, aksariyat maqollarda ezgulik va yomonlik qaramaqarshiligi tazod uslubida qo‘llanadi. Bu holat yosh avlodga pand-nasihat berishda, mehnatkashlikka targ‘ib etish, vafodorlik, do‘stlik kabi ezgu xislatlarni tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi. Miqdor sonlar ishtirok etgan maqollar boshqa jahon tillaridagi kabi fors tilida ham talaygina. Sonlar faqatgina hisob-kitob unsurigina bo‘lib qolmay, turfa xil qadimiy e’tiqodlar bilan bog‘liq ramziy ma’nolarga ham egadir. Ular nafaqat matematik unsur, balki millatning etnik xususiyatlarini, milliy an’ana va udumlarini, madaniy va mental belgilarini, uning tarixi, urf-odatlarini aks ettiruvchi vosita hisoblanadi. Insonning maishiy hayotida, umuman, inson faoliyatining barcha jabhalarida sonlar ishtirok etgan o‘rinlar juda ham ko‘p.

Buni ayniqsa fors maqollari zamirida ko‘rishimiz mumkin. Fors maqollarda eng ko‘p ishlatilgan miqdor konsepti bir, ikki, besh, sakkiz, yetti, qirq, to‘qqiz, yuz, ming raqamlaridir. Har bir miqdor son maqollarda turli xil vazifalarni bajaradi ammo, barchasi ramziy ma’noga ega deb ayta olmaymiz. Ba’zida sonlar shunchaki miqdor ko‘rsatgichi sifatida ham kelishi mumkin.

Maqollarda xalq ommasining ijtimoiy, tarixiy hayot tajribalari jonli shakllarda aks etadi. Bunda Eron xalqining dunyoqarashi, jamiyatga bo'lgan munosabati, milly an'analari, urf-odatlari, xulqi, orzu-umidlari, donoligi, mehnatkashligi, yomonlik va jaholatga nafrat his-ari mujassamlangan.

Ushbu maqola doirasida 40 dan ortiq miqdor sonlar ishtirok etgan fors maqollarini ko'rib chiqdik. Quyida maqollardagi miqdor sonlarning birdan minggacha bo 'lgan misollari tasnifini beramiz.

### **Bir soni ishtirok etgan maqollar:**

يک انار و صد بیمار

Bitta anor – yuzta bemor.

\*\*\*

يک آهو و صد سگ

Bitta kiyikka yuzta it.

\*\*\*

يک اوлад کم است، دو تا زیاد است.

Bir bola kam, ikkita - ko'p.

(Bittasi - kam, ikkitasi ko'p)

\*\*\*

يک بز که از جوی پرید همه ی بزها می پرند

Bir echki suvdan sakrab o'tsa, hamma echkilar sakrab o'tadilar.

\*\*\*

يک بزرگ، گله را گرگین کند

Tirraqi buzoq podani buzar

\*\*\*

يک پیری و صد بیماری

Qarilik bitta, kasali - yuzta.

\*\*\*

يک جا همه جا همه جا هیچ جا

Bir joy hamma joy, hamma joy hech joy.

(Daraxt bir yerda ko'karadi)

\*\*\*

يک دست صدا ندارد

Bir qo'lidan tovush chiqmaydi.

(Qars ikki qo'lidan chiqadi)

\*\*\*

يکی بگو يکی بشنو

Bir so‘yla, bir tingla.

\*\*\*

یک ده آباد، به از صد شهر خراب

Bir obod qishloq yuz xarob shahardan yaxshiroqdir.

\*\*\*

با يك گل بهار نمی شود

Bir gul bilan bahor boshlanmaydi.

\*\*\*

یک چشم گریان و یک خندان

Ko ‘cha xandon, uy zindon.

Bir miqdor soni qatnashgan maqollar juda ko‘p bo‘lib bitta maqola doirasida ularning barchasini ko‘rib chiqish imkonsiz. Guvohi bo‘lish mumkinki, bir soni bilan ifodalangan maqollar yakkalik, yolg‘izlik va kuchsizlik ma’nolarini va boshqa bir qancha ma’nolarni ifodalashi mumkin.

### **Ikki soni ishtirok etgan maqollar:**

دو شمشیر در يك غلاف نگند

Ikki shamshir bir g‘ilofga sig‘mas.

\*\*\*

دو پا را در يك کفشه کردن

Ikki oyoqni bir etikka solish.

\*\*\*

يک تیر و دو نشان

Bir o ‘q bilan ikkita nishonni urmoq

\*\*\*

چه خوش بود که بر آید زیک کر شمه دو کار

Bir karashma bilan ikki ishni bitirish qanday yaxshi.

\*\*\*

خدا يك زبان داده دو گوش يكى بگو دو تا بشنو

Xudo bir til, ikki qulqoq bergan: bir so'zla, ikki tingla.

\*\*\*

چوب دو سر دارد.

Yog'ochning ikki uchi bo‘ladi.

\*\*\*

خانه‌ای که دو کدبانو باشد خاک تا زانو باشد.

Ikki beka bo‘lgan uyda chang tizzagacha chiqqan bo‘ladi.

(Bir qozonda ikki qo‘chqorning boshiq qaynamas.)

\*\*\*

### **Uch soni ishtirok etgan maqollar:**

سه چиз پайдاری نманد: مال بى تجارت و علم بى بحث و ملک بى سیاست.

Uch narsa sobit qolmaydi: tijoratsiz mol, munozarasiz ilm, siyosatsiz mamlakat.

\*\*\*

طمع سه حرف است و هر سه میان تهی است.

Ta’ma so’zi uch harfdan iborat,

Har uchchala harfning ham o’rtasi teshik.

\*\*\*

مهمان عزیز است تا سه روز

Mehmon uch kungacha aziz.

(Kunda kelgan mehmonning qadri yo‘q)

\*\*\*

یکی کم است دو تا غم است سه تا خاطر جمع است.

Bittasi kam, ikkitasi g‘am, uchtasi xotirjamlikdir

Besh soni ishtirok etgan maqollar:

پنج انگوش برابر نیست

(پنج انگشت یکی نمی‌شود)

Besh qo‘l barobar emas.

Yetti soni ishtirok etgan maqollar:

7 raqami bilan bog‘liq xalq qarashlari va shu asosda yuzaga kelgan mifologik qarashlar muayyan badiiy formulalar sifatida folklorga o‘tgan. Bu fikr shubhasiz, folkloarning maqol janriga ham tegishli. Biroq yetti soni ishtirokidagi maqollar uchramadi. Balki mumtoz fors adabiyotining yorqin namoyandası Sa’diy Sheraziying “Guliston”idagi mashhur bayt maqol darajasiga chiqqan xalq ichida qo‘llanadi:

پرده هفت رنگ در مگزار

تو که در خانه بوریا داری: قناعت

**To’qqiz soni ishtirok etgan maqollar:**

دېگ بې دېگ مى گويد : رویت سیاھ است.

آبکش بە كفگىر مىگويد نە سوراخ دارى.

Qozon qozonga aytibdi: yuzing - qora.

Cho'mich kafgirga debti: to'qqizta teshiging bor.

(Birovga kulmagan zinhor, senga ham kuluvchilar bor.)

Xulosa qilib aytganda, fors maqollarida miqdor sonlar juda sermahsul qo'llanganiga guvoh bo'lish mumkin. Bir maqola doirasida mavzuni chuqur ochib berish imkonsiz. Mazkur maqola fors maqollaridagi birlik (1,2,3,5,7,9) miqdor sonlarining ishtirokidagi misollar bilan chegaralandi. Aslida esa birlikkaldan tashqari, o'nliklar, yuzliklar, mingliklar ishtirokidagi maqollarni ham ko'plab uchratdik. Ular alohida tadqiqotlarning manbai bo'lishi mumkin. So'zlovchining niyatiga qarab, maqollardagi miqdor sonlar ma'lumot yetkazish va hissiy ta'sirga erishish uchun qo'llaniladi. Ayniqsa, "پى" miqdor sonli maqollar juda k o'p, ular turli ma'nolarda tarjima qilinadi, zidlashtirish, tenglik, birlik va boshqa shu kabi ma'nolarni beradi.

Miqdor sonlar ishtirokidagi maqollarni o'rganish talabalar uchun "Sonlar" mavzusini o'tganda hamda klassik adabiyot namunalarini o'rganishda katta ahamiyatga ega.

#### **Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Sodiqov Q. O 'zbek mumtoz adabiyoti. Akademnashr. Toshkent 2022.
2. Abdusamatov Ming bir forschmaqol va matallar. Toshkent 2006.
3. Жўраев М., Расурова З. Миф, маросим ва эртак. Тошкент 2014.
4. <https://ganjoor.net/saadi/golestani/gbab2/sh46>